TOSHKENT HAQIQATI

HAQSEVAR ONA YURT, MANGU BO`L OBOD!

@haqiqatonline_24 Haqiqat online haqiqatonline_

Viloyat ijtimoiy-siyosiy gazetasi

1928-yil 11-dekabrda asos solingan

2025-yil 12-fevral / CHORSHANBA / № 7 (13768)

▼ 14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun

Mardi-maydonim, Bobur...

4

▼ Hamkorlik

SO‘G‘D DELEGATSIYASINING NAVBATDAGI TASHRIFI

Tojikiston Respublikasi So‘g‘d viloyati raisi Rajabboy Ahmadzoda boshchiligidagi delegatsiya amaliy tashrif bilan O‘rta Chirchiq, Zangiota, Yangiyo‘l, Qibray, Toshkent hamda Bo‘stonliq tumanlarida bo‘lishdi.

Ikki davlat hududlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, savdo masalalarida hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadidagi tashrifda mehmonlar tumanlardagi ixtisoslashgan yirik korxonalar va tadbirkorlik sub’yektlarining qishloq xo‘jaligi, sanoat va yangi zamonaviy-innovasion ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishishdi.

2

▼ Кун тартиби

Чиноз қиёфаси чиндан ўзгаради

Тошкент вилояти ҳокими Зойир Мирзаев Чиноз туманида бўлиб, ҳудудни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, хусусан, инфратузилмани яхшилаш борасида аҳолининг ҳақли эътирозларига сабаб бўлаётган ҳолатларни тегишли мутасаддилар иштирокида муҳокама қилди.

Қайд этилганидек, ҳудудда йиллар давомида эътиборсизлик оқибатида муаммолар тўпланиб қолган. Жумладан, ўсиб бораётган автомобиллар қатнови ҳисобга олинган ҳолда кўчалар кенгайтирилмаган, йўл ёқаларига ўзбошимчалик билан қуриб олинган савдо нуқталари транспортлар оқимига ҳалал беряпти, марказ пиёдалар учун хатарли ҳолатга келиб қолган, хиёбон ҳам ободонлаштиришга муҳтож.

Вилоят раҳбари туман марказини пиёда айланиб, бу ҳудудлар қиёфасини тубдан ўзгартириш, одамлар хотиржам юриши, дам олиши, сайрга чиқиши, бозор-ўчар қилиши учун қулай масканга айлантириш бўйича мутасаддиларга топшириқлар берди.

Вилоят ҳокимлиги Ахборот хизмати

“ЭЛЕКТРОН ПОЛИКЛИНИКА” ХИЗМАТИДАН ФОЙДАЛАНДИНГИЗМИ?

▼ Тиббиёт



Бугунги тиғиз замонда вақт инсоният учун энг қимматли ресурсга айланди. Одамлар ҳар бир иши тез ва осон битишини хоҳлайди, кутишга, навбатда туришга сира тоқати йўқ. Айниқса, у бемор бўлса...

Шу сабабли бугун юртимизда тиббиёт тизимини рақамлаштириш, хусусан, бирламчи тиббий-санитария ёрдами муассасаларида автоматлаштирилган ахборот тизимини жорий этишга жиддий эътибор қаратилмоқда. Хусусан, Президентимизнинг тегишли қарорларига асосан бирламчи тизимда “Электрон поликлиника” хизмати йўлга қўйилаётгани айни муддао бўлмоқда.

2



Viloyat bo‘ylab

NURAFSHON shahrida O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat Kengashi tashabbusi bilan buyuk mutafakkirlar – Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga bag‘ishlangan adabiy-ma’rifiy kecha o‘tkazildi. Unda nuroniylar, adabiyot va san’at namoyandalari hamda yoshlar ishtirok etishdi.

BEKOBOD tumanidagi ixtisoslashgan maktabda Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi munosabati bilan “Nazm bo‘stoning buyuk sultoni” mavzusidagi tadbir rus tilida o‘tkazildi.

ANGREN shahar hokimining o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i M.Abdurahmonova shahar FHDYO bo‘limi faoliyati bilan tanishdi. Rejaga ko‘ra, yolg‘iz onalik va otalikni belgilash, ona va bola salomatligini mustahkamlash, tug‘ilganlik to‘g‘risida hujjatlarni rasmiylashtirish, ayollar o‘rtasida jinoyatchilik va oilaviy ajrimlarning oldini olish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

CHINOZ tumani hokimi Sh. Salixov sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirokida «Chinoz dehqon bozori» hududini tartibga keltirish ishlarida qatnashdi. Tadbirda bozor va unga tutash hududlar obodonlashtirilib, aholi va tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratildi.

ZANGIOTA tumanida «Ayolini e’zozlagan yurt» mavzusida tadbir tashkil etildi. Dehqonchilik, issiqxonachilik va tikuvchilik sohalaridagi ilg‘or xotin-qizlar taklif etilgan tadbirda «Sarishtali xonadon», «Ibratli xonadon» va «Ilg‘or tomorqachi» nominatsiyalari g‘oliblari taqdirlanib, esdalik sovg‘alari bilan rag‘batlantirildi.

▼ Qaror va ijro

NORASMIY BANDLIK muammolarga sabab bo‘ladi

Mamlakatimizda yaratilgan imkoniyatlar tufayli ishlab chiqarish tarmoqlari, qurilish sohalarida olib borilayotgan ishlar ancha jadallashdi. Bu sa’y-harakatlar aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega, albatta. Biroq korxonalarga norasmiy tarzda ishga joylashish holatlari ham yo‘q emas. Bu esa xodimlarning mehnat huquqlari buzilishi, soliq sohasida qonuniy tartiblarga zid xatti-harakatlar ko‘payishiga olib kelmoqda.

2

БЕКОБОДНИ ФУТБОЛСИЗ ҚОЛДИРМАНГ!

3

"Менинг Фарида опам..."

▼ “Тошкент ҳақиқати” йўқлови

Фарида АКБАРОВА чизган суратлар

Сарлавҳадаги ибора меники эмас. У барчаники десам ҳам, муболаға бўлади. Кўпчиликники дейилса, маъқул тушса керак. Ҳа, гап бугун ўзининг 65 ёшини нишонлаётган Фарида Акбарова ҳақида бораётир.

У оддий шифокорликдан Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари, мамлакат Хотин-қизлар қўмитаси раиси лавозимигача бўлган ибратли ҳаёт йўлини босиб ўтган. Унинг меҳнат фаолиятида Тошкент вилояти ҳокимининг ўринбосари лавозимида ишлаган даври ҳам алоҳида эътиборли саналади.

Фарида Шораҳимовна 2007-2008 йилларда – бор-йўғи икки йил ана шу лавозимда меҳнат қилди. Лекин, тасаввурда бу муддат ўн йилларга тенгга ўхшайди. Чунки, у билан бирга вилоятга жуда кўп янгиликлар кириб келди. Муддатлар тиғиз, талаблар жуда нозик эди. Ўша кезлар, масалан, оилани режалаштириш деган гапларни ҳамма ҳам хайрихоҳлик билан қаршиламаган эди. Лавозим нуқтаи назаридан вилоятда бу масалага умумий “жавобгар” Опанинг ўзи эди. У нозик масалаларда ҳамиша ўрта йўлни топа билди. Сихни ҳам, кабобни ҳам куйдирмади. Боз устига, ўша йиллар негадир ёшлар орасида ажрим кўпаймоқда эди. Хонадонма-хонадон юришга тўғри келди. Бу ишни ҳам эплаштирди. Ҳозиргидек ижтимоий дафтарлар, моддий ҳимоя кафолатлари деган гаплар қаёқда дейсиз? Шундай шароитда ночор оилаларни моддий, маънавий қўллаб-қувватлашнинг ўзи бўлмасди, лекин Фарида опа йўл-йўриқларини топа билди, амалиётга жорий қилди.

(Давоми 2-саҳифада)

SO‘G‘D DELEGATSIYASINING NAVBATDAGI TASHRIFI

Dastlab mehmonlar O‘rta Chirchiq tumanidagi “Madoniz diamond” xususiy urug‘chilik korxonasida bo‘lib, urug‘lik chigit tayyorlash loyihasi bilan tanishishdi.

Korxonada yetishtirilayotgan urug‘lik paxta, bug‘doy va dukkakli ekin navlarini ko‘paytirish, noyob turdagi daraxt ko‘chatlari haqidagi ma’lumotlar mutaxassislar tomonidan taqdim etildi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi texnikalari ko‘zdan kechirildi. Pirovardida, kelgusida qishloq xo‘jaligi sohasida o‘zaro hamkorlik yuzasidan kelishib olindi.



Delegatsiyasi a’zolari Zangiota tumanidagi “Grand pharm hub” logistika markazida ham bo‘lib, yaqin istiqbolda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish borasida dastlabki muzokaralarni o‘tkazishdi.

Shuningdek, Singapur bilan hamkorlikda tashkil qilingan ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchi “TRT” korxonasi faoliyati ham ko‘zdan kechirildi.

Ta’kidlash joizki, mazkur korxonada yengil va yuk tashuvchi avtomobillarning yurishi, transmissiya va boshqaruv tizimlari uchun 1 mingdan ortiq turdagi ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi. Korxonada texnik tekshiruv va sinovlarni o‘tkazish uchun laboratoriya ham tashkil qilingan, xalqaro sifat menejmenti sertifikati ham mavjud.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Mehmonlarda, ayniqsa, tumandagi umumiy qiymati 10 million dollar bo‘lgan “Mos pekar” MCHJ qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi katta taassurot qoldirdi. Bu yerda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali aholiga sutkasiga 55-60 tonna toza, sifatli qandolat mahsulotlar yetkazib berilmoqda. Bugun korxonada 150 dan ziyod ish o‘rni yaratilgan. Yillik eksport hajmini 5-6 million dollarga yetkazish reja qilingan.

Tashrifning ikkinchi kuni muloqotlar Yangiyo‘l tumanidagi “Tinchlik” kichik sanoat hududida davom etdi. Bu yerda keyingi bir yilda ishga tushgan yirik sanoat korxonalari, xorijiy hamkorlar ishtirokidagi noyob loyihalar mehmonlarga ko‘rsatildi.

Shu kuni Qibray tumanida So‘g‘d va Toshkent viloyati tadbirkorlari ishtirokida biznes forum bo‘lib o‘tdi.

Tadbir doirasida B2B formatida muloqot tashkil etildi. Unda ikki tomonlama hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari xususida atroflicha maslahatlashib olindi.

Shuningdek, So‘g‘d viloyatidan import qilinadigan mahsulotlarni o‘zlashtirishda hamkorlik qilish yuzasidan shartnomalar tuzildi. Hududiy va tarmoq korxonalar o‘rtasida butlovchi qismlar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish bo‘yicha manfaatli kelishuvlarga erishildi.

Biznes forumda Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev ishtirok etdi.

Viloyat hokimligi Axborot xizmati xabarlari asosida tayyorlandi

NORASMIY BANDLIK muammolarga sabab bo‘ladi

Prezidentimizning 2022 yil 30 avgustdagi “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan yuridik shaxslarda faoliyat yuritayotganlarning – “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksida, norasmiy bandlik ulushini qisqartirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan.

Shuni e’tiborga olib, Toshkent viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi 2024 yilda Davlat mehnat inspektorlari tomonidan mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi hamda norasmiy ishlayotgan fuqarolarni rasmiylashtirish yuzasidan joylarga chiqqan holda korxona va tashkilotlardagi vaziyat o‘rganildi.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Jarayonlarda norasmiy ish o‘rinlari bo‘lgan ishlab chiqarish, qurilish va xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda jami 2 ming 707 nafar norasmiy ishchi xodimlarga belgilangan tartibda mehnat shartnomalari tuzilib, ishga qabul qilinganligi to‘g‘risidagi buyruqlar rasmiylashtirildi. Bu bo‘yicha ma’lumotlar Yagona milliy mehnat tizimiga kiritilishi ta’minlandi.

Ayniqsa, norasmiy bandlikka oid ko‘rsatkichlar Angren, Ohangaron, Chirchiq, Yangiyo‘l shaharlari, Bekobod, Zangiota, Bo‘stonliq, Toshkent, Qibray tumanlarida yuqori ekani aniqlandi. Bundan tashqari, ayrim korxona va tashkilot ish beruvchilari tomonidan xodimlarga qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam oylik ish haqi to‘lab berilayotgani to‘g‘risidagi ma’lumot ham Toshkent viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan tegishli tartibda o‘rganilib, qonunbuzarlik holatlarini bartaraf etish choralari qo‘llanilgan.

Joriy yilda ham bu boradagi nazorat ishlari davom etmoqda. Xususan, Zangiota tumanida inspeksiya xodimlari tomonidan korxona va tashkilotlardagi holat o‘rganildi. Unga ko‘ra, norasmiy ish o‘rinlari bo‘lgan ishlab chiqarish sohasida 172, qurilish obyektlarida 157 va xizmat ko‘rsatish joylarida 66, nodavlat ta’lim sohasida 37 nafar ishchi xodimlar borligi ma’lum bo‘ldi. Ular bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomalari tuzilib, ishga qabul qilingani to‘g‘risidagi buyruqlar rasmiylashtirildi.

– Afsuski, ko‘p hollarda ayrim fuqarolar o‘z mehnat huquqlarini yetarlicha bilmagani tufayli kam maosh uchun ham ishga yollanmoqda, – deydi viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi Davlat mehnat inspeksiyasi rahbari Ma’rufjon Toshqulov. – Bu kabi vaziyatda ish haqi belgilangan muddatda berilmasligi, yoki kam berilishi, istalgan payt ishdan ketishi bilan bog‘liq ko‘ngilsizliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Bu aynan mehnat muhofazasi talablariga javob bermaydigan holatlarga sababdir. Biz har doim norasmiy ishlayotganlar bilan suhbatda ularga mehnat huquqlarini tushuntirishga harakat qilamiz. Achinarlisi, korxona va tashkilotlar mas’ullari ham bunga bilib turib yo‘l qo‘yishidir. Ularga qonuniy tushuntirish berilib, kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tashkilot rahbarlariga bajarilishi shart bo‘lgan yozma ko‘rsatmalar berilmoqda.

Abdulaziz MUSAYEV

“ЭЛЕКТРОН ПОЛИКЛИНИКА” ХИЗМАТИДАН ФОЙДАЛАНДИНГИЗМИ?

Янги тизимнинг афзаллиги шундаки, барча тиббий ҳужжатлар электрон базага киритилади ва аҳолига тезкор, сифатли тиббий хизмат кўрсатилади. Қолаверса, “Электрон поликлиника” онлайн рўйхат асосида фуқароларни қабул қилиш, масофавий диагностика, бемор саломатлигини масофадан мониторинг қилиш, тиббий карталарнинг тармоқли тизими, виртуал тиббий кўрикдан ўтиш, виртуал шифохона хизмати, электрон рецептлар, телеметрия ва зарур тиббий ёрдамни уйда олишга имкон яратади.

Эндиликда оилавий поликлиникалар ва ҳудуддаги кўп тармоқли марказий поликлиника юқори тезликдаги оптик толали интернет тармоғига уланади. Янги дастур ортиқча қоғозбозликларга чек қўйиб, тезкор ва аниқ ишлашга, асосийси, шифокорлар беморлар учун кўпроқ вақт ажратишига шароит яратди.

Қибрай туманидаги кўп тармоқли марказий полилиникада мазкур тизим ўтган йилнинг сўнггги ҳафтасидан йўлга қўйилди. Тизим бехато ишлаши учун марказга 50 та замонавий компьютерлар келтирилди, аҳолининг электрон рўйхати шакллантирилиб, ходимлар ўқитилди.

– Поликлиникамиз ҳудуддаги барча маҳаллаларга хизмат кўрсатади, – дейди муассаса мудири ўринбосари Миркомил Исаев. – Шунга яраша мурожаат этувчилар кўп. Илгари беморнинг шикоятини эшитиш, ёзиш, тавсия бериш ҳамда лаборатория текшируви ёки тор доирадаги мутахассисларга йўналтиришга камида 15 дақиқа вақт кетарди. Ҳозир бу жараёнга 3 дақиқа етарли. Эндиликда бемор уйидан онлайн қабулга ёзилиб, электрон рақам орқали ўзининг ID картаси билан келади. Биз унинг қўшимча шикоятларини қайд этиб, мисол учун кардиологга йўналтирсак, бемор боргунига қадар кардиолог электрон тизим орқали у ҳақидаги маълумотга эга бўлади. Ёки бошқа ҳудуддаги шифокорга борганида ҳам ўзининг касаллик тарихи, таҳлил натижалари ва бошқа маълумотларни кўтариб юрмайди. Яъни, маълумотлар электрон базада доимий сақланади ва бемор истаган вақтда уни ўзининг ID рақами орқали олиши мумкин.

Эътиборлиси, «Электрон поликлиника» ахборот тизимига уланган барча поликлиникалар ягона сервер асосида ишлайди ва ҳар бир поликлиникага қанча бемор мурожаат қилгани, уларни қайси шифокорлар кўрикдан ўтказгани, қандай рецепт ёзилгани, бемор дорини олган-олмагани, ҳатто Соғлиқни сақлаш вазирлигидаги масъулларга ҳам кўриниб туради. Бу тизим фаолиятини мувофиқлаштириш, кўп учрайдиган касалликларни ҳудудлараро таснифлаш имконини беради.

Шунингдек, беморнинг барча таҳлиллари оилавий шифокорга кўриниб туради. У шунга қараб, электрон рецепт беради. Бемор рецептдаги дорини поликлиниканинг ўзидан олиши ҳам электрон тарзда назорат қилинади. Фуқаролар эса тиббий таҳлиллари, касаллик тарихини уйда ўтирган ҳолда онлайн кузатиб туришлари мумкин.

Мазкур тизим “Uzinfocom” ягона интегратори томонидан ишлаб чиқилган DMED платформаси асосида пилот режимида ишлайди. Рецептни олиш учун DMED иловасини смартфонга ўрнатиш талаб қилинади. Электрон рецепт шифокор олдига борганда иловада беморга юборилган код киритилгандан сўнг берилади. Бемор дорихонага боради ва рецепти кўрсатади. Фармацевт рецептдаги QR-кодни сканерлагандан кейин беморга керакли препаратни беради.

– Шу ўринда бир жиҳатга ойдинлик киритиш лозим, – дея давом этди Миркомил Исаев. – Жараён ҳали синов режимида. Ҳозирча беморлар дориларни электрон рецепт асосида шартнома тузилган дорихоналардан белгиланган тартибда арзонроқ нархда олишади. Унда бундай тизим нега керак, деган савол туғилиши табиий. Бу тизим ортиқча дорилар ёзиш, дорихоналарда ўзбошимчалик билан ёки рецептда кўрсатилган дорининг ўрнини босувчи препаратларнинг сотилишига чек қўяди. Муҳими, аҳолини хавфсиз дори воситалари билан таъминлаш ва контрабандага қарши курашда ёрдам беради. Бунда беморга қўйиладиган ягона талаб – дориларни кўрсатилган дорихонадан олиш.

Статистик маълумотларга қараганда, марказий поликлиникага кунига 1 минг 300 нафарга яқин бемордан мурожаат келиб тушмоқда. Марказда ҳозирда 22 та тор доирадаги мутахассис фаолият юритади. Бугунги кунгача 800 га яқин беморга электрон рецепт берилди. Айни пайтда поликлиника атрофидаги 6 та дорихона билан шартнома тузилган. Аҳолининг талабидан келиб чиқиб, туман марказидаги дорихоналар билан ҳам келишувлар тузиляпти.

Бир сўз билан айтганда, ушбу лойиҳа соғлиқни сақлаш муассасалари ўртасида тиббий маълумотлар алмашинуви учун дастурий муҳит яратиш, тизимни замонавий талабларга мослаштириш орқали такомиллаштиришга ёрдам беради.

Нозима РАСУЛОВА,
“Тошкент ҳақиқати” мухбири
Жалолиддин ЭСОНОВ олган суратлар

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)

"Менинг Фарида опам..."

Опа табиатан адабиётга, санъатга яқин, ижодкор инсон. Шу боис, ўша йилларда вилоят миқиёсида ўтказилган байрам тадбирларининг салмоғи, савияси, мазмун ва моҳияти ортди. Кўпчилик аввал Бўстонлиқ туманида, кейинги йили Оҳангарон кенгликларида ўтказилган Наврўз сайилларини ҳали-ҳануз завқ-шавқ билан эсласа керак.

Фарида Шораҳимовна Республика Бош вазирининг ўринбосари, мамлакат Хотин-қизлар қўмитаси раиси лавозимига кўтарилгач, унинг ўрнига муносиб номзод топиш осон кечмагани, ўнлаб кадрлар чиғириқдан ўтказилгани ҳам бежиз эмасди. Бунинг бир сабаби, опага муносиб издош топиш бўлса, иккинчи сабаби Фарида опа бири-биридан зукко, фидойи шогирдлар тарбиялаб қолдирган эдики, муносиблардан муносибини танлаш лозим эди...

Бугун вилоятимиз аҳли яхши таниган раҳбар ва фаол аёллардан Сайёра Файзиева, Моҳира Ходжаева, Зуҳра Мирғозиева кабилар шулар жумласидандир. Бу рўйхатни мамлакат миқёсида олсак, яна кўп қаторларни қоралаш керак бўлади.

Ҳозир ҳам опа Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерацияси тизимида ишлаб, унинг қуйи тармоқлари нуфузини оширишга муносиб ҳисса қўшиб келмоқда. Бу жараёнда меҳнаткашлар манфаатларини ҳимоялаш, соғлиғини сақлаш, соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш борасида амалга ошираётган ишлари алоҳида эътирофга лойиқ. Бугун Фарида Шораҳимовна раҳбарлик қилаётган Қибрай туманидаги “Бўстон санаторий”си масъулияти чекланган жамияти мамлакатимизнинг энг намунали оромгоҳларидан бирига айланган. Унинг довруғи халқаро миқёсда ҳам эътироф қилинмоқда.

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)

Опанинг ўзи шундай ҳикоя қилади:

"2019 йил апрель ойларининг сўнгида кечги пайт қўнғироқ бўлиб қолди:

– Вазирлар Маҳкамасида масъул лавозимда ишлаб, бой тажриба орттирганлигингиз боис, сизга катта ишонч билдирилиб, Сурия давлатидан, яъни уруш ўчоғидан олиб чиқилаётган ўзбекистонлик фуқароларимизни, айнан аёллар ва фарзандларимизни сиз ҳозирда раҳбарлик қилаётган “Бўстон” санаторийсига жойлаб, реабилитация қилиш тўғрисида фикр бўлди. Бу таклифга нима дейсиз?

Раҳбаримизнинг таклифидан бир оз шошиб қолганим рост. Чунки бу таклифнинг жуда катта масъулияти борлигини ҳис қилиб турардим.

– Башарти, ишонч билдирилган экан, уни оқлашга ҳаракат қиламиз, – дедим.

Оловли уруш майдонларидан қайтарилаётган аёллар ва болалар қанча бўлса, барини сиғдира олишимизни айтдим. Лекин, оромгоҳимиз 230 ўринга мўлжалланган. Боз устига, карантин талабларига риоя қилиш керак. Албатта, бу масалани Ҳукумат доирасида ҳал этиш лозим. Шунинг учун алоқадор вазирликлар ва бошқа ташкилотлардан мутахассисларни жалб қиладиган бўлсак, у ҳолда 300 нафар одамни ҳам сиғдира олишимизни айтдим. Суҳбатдошим далда берди, муаммоларни биргалашиб ҳал этишимизни билдирди. Бу гапларни бир сўзли, қатъиятли инсондан эшитиш бутун жамоамизга куч бағишлади ва вазифани ёруғ юз билан уддаладик..."

Шундай қилиб, мамлакат тарихида биринчи маротаба амалга оширилган “Меҳр-1” номи билан маълум ва машҳур бўлган лойиҳа “Бўстон” санаторийсида ўтказилди.

Биринчи навбатда, юртга қатариламалга оширилди. Репатриантларнинг шахсини тасдиқловчи ҳужжатлар қайта тикланди, уларнинг нотинч ҳудудларда бўлган вақтида туғилган болаларига қонунда белгиланган тартибда туғилганлик ҳақидаги гувоҳномалар расмийлаштирилди.

“Бўстон” сиҳатгоҳида “Меҳр” номи билан аталган ана шундай инсонпарлаётганлардан айб эмас, фазилат қидириш кераклиги жамоага уқтирилди. Вақт жуда зиқ эди. Жамоа ўз ишини янги талаблар асосида қайтадан ташкил қилди. Сурия давлатидан олиб келинган 156 нафар қоракўз сиҳатгоҳга жойлаштирилди. Уларнинг 102 нафари болалар эди.

... қаҳрамонимиз дидли ижодкорлар сирасидандир. Фарида Акбарова ишдан бўш чоғларида қўлига мўйқалам олади, кўнгил кечинмалари тасвирларга кўчади.

Мазкур дастур доирасида олиб келинганларни реабилитация қилиш ва ижтимоий мослаштириш мақсадида мамлакатимиз Ҳукумати томонидан меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниб, тегишли чора-тадбирлар белгиланди. Республика миқёсида ҳамда вилоят ҳокимликлари ҳузурида ҳудудий идораларо комиссиялар ташкил қилинди. Бу комиссия ва ишчи гуруҳлар томонидан қайтарилганларни реабилитация қилиш ва ижтимоий мослашув тадбирлари, уларни ишга жойлаштириш, психологик кўмаклашиш, профилактик таъсир кўрсатиш, болаларни мактаб ва боғчаларга жойлаштириш каби кўламли вазифалар фуқаро ва бу йил бошидаги акцияда яна Сурия давлатидан қайтарилган 93 нафар фуқаронинг реабилитацияси таъминланди. Бундай олижаноб ишлар ҳануз бардавом.

Фарида опа бошлиқ жамоанинг бағрикенглик ва одамийлик каби фазилатлари яққол намоён бўлган бундай мисолларни 2020 йилда бошланган “Ковид пандемияси” билан боғлиқ тадбирлардан ҳам келтирса бўлади.

“Бўстон санаторийси” масъулияти чекланган жамияти мамлакатимиз аҳолиси соғлиғини сақлаш ва тиклаш йўлида самарали фаолият кўрсатмоқда. Буни дам олувчиларнинг миннатдорлик сўзларидан ҳам билса бўлади. Чунки бу ерда дам олувчи меҳнаткашлар соғлиғини сақлаш ва тиклаш учун барча шарт-шароитлар яратилган. Ўз раҳбарларидан ўрнак олган санатория ходимлари муолажаларни очиқ юзлик, ширин сўзликка қўшиб олиб борадилар.

Бугун сайёҳлик хизматлари портфелида тиббий туризмнинг ўрни алоҳида. Бунда ҳам дам олиш, ҳам даволаниш мумкин. Тиббий туризм имкониятларидан фойдаланган чет эллик сайёҳларнинг ҳар учтасидан бири вилоятимиз ҳиссасига тўғри келаётгани қувонарли. Бундай натижаларга эришишнинг асосий омили “Тиббий хизматлар меҳмондўстлиги” дастурининг йўлга қўйилганлигидир. Фарида Акбарова бир қатор илғор хорижий мамлакатларда бўлиб, сайёҳлар учун яратилган шарт-шароитлар билан мунтазам танишиб боради, шу аснода бор имкониятларини ишга солмоқда.

Фарида опа қачон ва қайси вазифада ишлаган бўлса, ҳамиша одамларнинг, раҳбариятнинг ишончини ва ҳурматини қозониб келмоқда. Бу ҳаммага ҳам насиб этавермайдиган ноёб фазилатдир. Бугунги кунда Халқ депутатлари Тошкент вилояти ҳамда Қибрай тумани Кенгаши депутати сифатида ҳам жамоат ишларида фаоллик кўрсатмоқда. Шу билан бирга, ҳавас қиларлик оила бекаси, меҳрибон она...

Сўзимиз якунида яна бир гап. Биз юқорида ишора қилдик – қаҳрамонимиз дидли ижодкорлар сирасидандир. Бу дилбар аёлнинг ранг-тасвир санъатида қойилмақом қалам суриши эҳтимол, айримлар учун янгиликдир.

Чиндан ҳам, Фарида Акбарова ишдан бўш чоғларида қўлига мўйқалам олади, кўнгил кечинмалари тасвирларга кўчади. У юртимизнинг бетакрор табиатини, гўзал манзараларини акс эттиришни хуш кўради. Унинг ижод намуналар хос доираларда ҳамиша эътироф этиб келинади.

Санъатдан йироқ шифокорлар яхши ҳам, ёмон ҳам бўлишлари мумкиндир, лекин Фаридахон каби ижодга ошно шифокорлар фақат яхши бўладилар!

Раҳматилла ШЕРАЛИЕВ,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси

▼Дарвоке

Одамзодга фикрлаш эркинлиги берилган. Ҳамма ўзи хоҳлаганича тафаккур қилиш ҳуқуқига эга. Агар бу чекланса, одамзод Чингиз Айтматовнинг қаҳрамони Жўламонга ўхшаб қолиши табиий. Бизни – ҳурфикр инсонлар ва замонавий илм-фан муштарак орзуларга олиб боришини унутмаслигимиз шарт. “Нажот – таълимда” деган сермазмун гапнинг мағзини чақмоғимиз лозим.

Пайпоқнинг САНЪАТГА дахли борми?

Бугунги кунда ўз илми билан ютуқларга эришаётганлар кишини қувонтиради. Тағин... бунинг акс тоифаси борки, одамни ўйга толдиради. На уларга гап уқтириб бўлади, на фикр. Пиллага ўхшаб, қобиққа ўралиб олишган. Ўз қарашларига ёт ҳар қандай фикрни инкор қилишади. Улар-чун муҳими шакл, моҳият бир тийин. Менимча, одам фикрий қобиққа ўралган сари тафаккур чегараси ҳам чекланиб бораверади.

Яқинда қизиқ бир суҳбатнинг гувоҳи бўлдим. Бир йигит замонавий мусиқаларни тинглаш жоизмаслиги ҳақида бонг урарди. Эшитган одам гуноҳкор бўлармиш... Унинг гапига ҳали “чуқурлашиб” кетмаган ва “чуқурлашиш”га дадил қадам босаётган иккинчиси қўшилди: “Мусиқа ҳаромми, ҳаромасми, унисини билмайман. Ҳозирча мен эшитяпман. Илмим кучайгач, балки тарк этарман”.

Бу вазиятда менинг гапимни зиғирча аҳамияти йўқлиги кундай равшан!

“Мусиқанинг гуноҳлигини” билмаган иккинчи йигит давом этарди: “Лекин санъаткорлар айнияпти. Фалончини жуда ҳурмат қилардим. Лекин охирги пайтлар ҳурматим сўнди”. Негалигига қизиқдим. Бирор айби бормикан? Ёки бугунги қўшиқлар куйлай бошлабдими? Хаёлимга турли фикрлар кела бошлади. Афсуски, мен ўйлагандай бўлмади.

“У сўнгги концертига калта пайпоқ кийиб чиқди!”

Қизиқ жавоб-а? Пайпоқнинг санъатга қандай алоқаси борлиги одамни ташвишлантирди. Қўшиғини эшитиб юраверсак бўлмасмикан? Яна ким билсин, балки, пайпоғу кийимга кўп нарса боғлиқдир.

Бу – биринчи ҳолат. Танишимдан эшитган иккинчи ҳолат одамни жуда ўйга толдиради. Эмишки, танишимнинг таниши замонавий тўйларга бормасмиш. Негаки, бундай йиғинлар динимизга зиддмиш. Э, биродар, чуқурлашиб кетсак, бу бизни тамоман чуқурга итқитади-ку! Яна бир қизиқ ҳолатга дуч келгандим. Биз тўрт-беш киши ҳамкасб аёллар билан тушликка кирган эдик... Нариги столда: “Жаҳаннамда асосан хотинлар кўп бўлар экан”, деб икки “эркак” ивволашиб ўтирарди. Шериклар ўқимишли аёлларнинг айниб кетаётгани ҳақида жон куйдириб, баланд овозда сўзлашарди. Гўё, ҳамкасбларимиз уларнинг ғояларига амал қилиши керакдек. Гаплари ҳамкасбларимизни бироз хижолат қилди. “Илтимос, биз маъруза эшитишгамас, овқатланишга кирдик. Ёқмаётган бўлса, марҳамат, бизга халақит қилманг”, деди шаддодроқ опамиз. Кейин, “қўшни столдагилар” аразлагандек, тумтайиб чиқиб кетишди.

... мусиқа ҳаромми, ҳароммасми, унисини билмайман. Ҳозирча мен эшитяпман.

“Акахонларнинг гаплари” жоҳилият назариясидан мужда эмасми? Ахир, Пайғамбаримиз (с.а.в.) “Илм олиш мўмин ва мўминага фарздир”, деб марҳамат қилганлар-ку! Замонага ҳамнафаслик ҳам керак-ку! Нега шаклни байроқ қиламиз-у, моҳиятга парво қилмаймиз? Динимизда ўқиш, ўрганиш, илм олиш улуғланган. Хўш, нега бу жиҳатига тўхталмаймиз.

Яқинда ўтган аср бошларида, Германияга ўқишга юборилган талабалар орасида қизлар ҳам борлигини ўқиб, ҳайрон қолдим. Рости, улар жасорат соҳибалари эди. Тараққий асримизда хотин-қизлар илмига қаршилар бисёрлигини кўриб, ўтган асрда бу журъат қанчалик қийин бўлганини тасаввур қилаверайлик-да!

Нега, ҳалигича таълимга бизга бўлаверади қабилида қараймиз? Илм чўққиларига интилмасак, охири вой-ку!

Анчадан бери тинчлик ҳукм сурмаётган ён қўшнимизда яшайдиган миллатдошларимиз ҳаётини ижтимоий тармоқда кўриб қоламиз. Жуда ачинарли. Уйлари ўрта асрларни эслатади. Блогернинг: “Қишлоқда мактаб борми?” деган саволига: “Мактаб йўқ. Ўзи қишлоқда битта ўқитувчи бор. Баъзан дарс ўтади!” деган маънода жавоб беришди. Болалар эса кўчани тўлдириб ўйнашяпти.

Шунча олимимиз бор, аммо оламшумул ихтироларимиз қани? Ёки бизда кўпроқ ойлик олиш учун илм қилинадими?

Уларга ачиндим. Изоҳларни ўқисак, жуда кўп ватандошларимиз уларни мақтаб ёзишяпти. “Бунча самимий одамлар. Худди ўзимни саодат асрига қайтиб қолгандек ҳис қилдим. Бирам ҳавасим келдики... Қанийди мен ҳам шу ерда яшасам”, деган маънодаги изоҳлар ҳам бор эди. Ўқиб бироз дилим ранжиди. Шукр қилсанг-чи, биродар. Фарзандларимиз замонавий мактабларда ўқишяпти, барча илмни ўрганишига шароит ҳозир, юртимиз тинчлиги энг бебаҳо неъматимиз бўлса, тағин нега нолийсан, дегим келди. Ахир, одамда шукр ҳам бўлиши керак-ку!

Биз ана шундай икир-чикир ғоялар билан юрган маҳалимиз, кимдир Марсга ракета учиряпти. Биз “Кобалт”нинг фарасини қорайтириб, янгиладик деб хушнуд юрганимизда, кимлардир учадиган машинани синовдан ўтказяпти!

Миллатларнинг ривожи илм-фан, замонавий технология билан. Худди ана шу мезонлар давлатларнинг қудратини белгилайди. Куч эгалари молиявий мустаҳкамдир. Бу ҳеч кимга қарам эмас, дегани.

Бугун дунё илм-фан пойгасида мусобақа қилаётганида, биз ўтроқ фикрларни ёйиш ҳақида баҳслашмоқдамиз. Бундай жўн ғоялар бизни тарк этмас экан, ҳали узоқ вақт “аввал ўнг оёқми ё чап оёқ” баҳсида давом этамиз.

Қуруқ гап билан аравани олиб қочишдан фойда йўқ. Биз “чириган” деб атайдиган ғарб ва кунчиқар шарқ олимлари фаннинг юқори чўққиларини забт этишяпти. “Чиримаган” биз эса фақатгина истеъмолчи ҳолида қоляпмиз. Аҳволни ўзгартириш пайти аллақачон келди. Ижтимоий тармоқни қарасангиз, кўпчилик илмий ишини муваффақиятли ҳимоя қилиб, доктору профессор бўлгани ҳақидаги хабарни сақифасига улашади. Одам бир томондан қувонса, тағин ўйга толади... Шунча олимимиз бор, аммо оламшумул ихтироларимиз қани? Ёки бизда кўпроқ ойлик олиш учун илм қилинадими? Эҳтимол, гуманитар соҳанинг олим вакиллари бирор иш қилишаётгандир, ҳар қалай ўз номи билан гуманитар... Аммо техника фанлари доктору профессорларининг яратган ишлари қани? Адашмасам, илмий иш дегани соҳа ривожига қанақадир янгилик бериши лозим. Шу билан фанга ҳисса қўшиши керак. Агар шундай бўлса, бизда ривожланмаган соҳанинг ўзи қолмаслиги керак эди. Сон кўп, аммо сифат-чи?

Аҳволни ўзгартириш пайти аллақачон келди. “Нима қилиш керак?” деган азалий ва абадий савол яна қаршимизда. Албатта, ўзгаришни ўзимиздан бошлашимиз, фарзандларимизга замонанинг илғор билимларини бериш машаққатларига чидашимиз керак. Ўзгаришнинг ҳозирча бошқа йўли йўқ!

Зикрилла МУҲАММАД,
“Тошкент ҳақиқати” мухбири

▼Акс-садо

БЕКОБОДНИ ФУТБОЛСИЗ ҚОЛДИРМАНГ!

“Тошкент ҳақиқати” газетасини доимий равишда кузатиб бораман. Газетанинг 2025 йил 5 февралдаги сонида чоп этилган “Бекободда футбол тамом...” мақоласида мен қатори бутун бекободлик футбол мухлисларининг дарди акс этибди.

20 йилдан буён “Металлург”нинг уй ўйинларини бевосита стадиондан томоша қилиб келаман. Маълум вақт жамоанинг фан-клубида ҳам фаолият олиб борганман. “Учрашув” фильмидаги футбол фанати (раҳматли Эргаш Каримов) каби клуб ғалаба қозонганда бирга қувониб, мағлуб бўлганида “Онамдан қолган тошойнани” излайдиган даражада эдим. Бизда футболни жуда ҳам севишади. Тўғри, учрашувларда стадион мухлислар билан тўлмас, аммо ҳақиқий фанатлар доим клуб билан бирга бўларди. Ўтган мавсум сўнгида қадрли жамоамизнинг Олий лигадан тушиб кетгани ҳақидаги хабар ана шу жонкуяр футбол мухлисларини қайғу оламига етаклади.

Дарҳақиқат, “Металлург”нинг қуйи лигага тушиб кетиши, нафақат футбол мухлислари учун, балки Тошкент вилояти учун ҳам ачинарли воқелик аслида. Боиси, XXI асрнинг иккинчи ўн йиллигидан бошлаб вилоят футболининг икки устуни – Олмалиқнинг ОКМК ҳамда “Металлург” жамоалари ўртасидаги рақобат томошабоплиги билан ажралиб турарди. Европа футболида “Мадрид”, “Лондон”, “Милан” дербилари қанчалик машҳур бўлса, Ўзбекистон чемпионатида “Водий”, “Тошкент” ва “Тошкент вилояти” дербилари шунчалик даражада эди. Мазкур қарама-қаршиликлар чемпионатни безаб берарди. Ушбу дербиларда жамоаларнинг ўрни, олдинги натижалари, эришган ютуқлари иккинчи “план”га тушиб қолар, клублар ўзаро рақобатда ким кучлилигини исботлаш учун ҳам майдонда борини берар эди.

Оддий мисол, “Тошкент вилояти” дербисини олайлик. ОКМК доимий равишда Ўзбекистон чемпионатида юқори ўринлар учун курашадиган клублар қаторига кириши, Бекобод жамоаси эса доимий равишда ўртамиёналар қаторида тилга олиниб келингани ҳеч кимга сир эмас. Бироқ, уларнинг ўзаро учрашувида бу фактларнинг умуман аҳамияти бўлмаган. Рақамларга эътибор қаратсак, аксинча, устунлик кучсиз, “спонсор”и ишонч билдирмай қўйган бекободликлар томонида бўлганига гувоҳ бўламиз. Вилоятнинг икки жамоаси шу кунга қадар 34 маротаба ўзаро тўқнаш келишган. Шундан 16 тасида “Металлург”, 14 тасида эса олмалиқликлар ғалаба қозонган. Яна тўртта учрашув дуранг натижа билан якунланган. Бекободликларнинг инқирози ана шундай “дерби”нинг йўқолишига сабаб бўлди. Рўй берган воқеалар фонида Тошкент вилояти футболи бир устунидан айрилди. Афсуски, йиқилган устуннинг қачон тикланишини ҳеч ким билмайди. Унгача вилоят шаънини фақат бир жамоа ҳимоя қилади. Энг олис нуқталардан саналган Бекободимизда эса камида икки йил Суперлига “шамоли” эсмайди. Таркибнинг тарқаб кетгани, клубнинг инқирозга юз тутганини инобатга олсак, бу муддат янада кўпроққа чўзилиш эҳтимоли юқори. Унгача, клуб майдони шоу-концертлар билан банд бўлса ажабмас.

Биз – мухлислар раҳбариятдан бир нарсани сўраб қолардик: “Металлург”ни тезроқ “оёққа” туриб кетишига кўмак беринглар. Илтимос, Бекободни футболсиз қолдирманг!

Нодирбек ЖАМОЛОВ,
бекободлик футбол мухлиси

“Oltin qalamli jurnalistlar”

O‘zbekiston Milliy matbuot markazida O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tomonidan nashr etilgan “Oltin qalamli jurnalistlar” kitobining taqdimoti o‘tkazildi.

▼Taqdimot

Jaloliddin ESONOV olgan suratlar

Tadbirda OAV vakillari, gazeta va jurnallar bosh muharrirlari, mazkur kitobdan materiallari joy olgan ustoz jurnalistlar hamda o‘zbek media sohasining qator vakillari ishtirok etishdi.

Taqdimotni O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov ochib berdi. U davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 27 iyundagi “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida Uyushma tomonidan ming nusxada chop etilgan “Oltin qalamli jurnalistlar” kitobini nashrga tayyorlash jarayonlari haqida to‘xtalar ekan, kitobga 50 nafarga yaqin ustoz jurnalistlarning publisistika, jurnalistik surishtiruv, ocherk, felyeton kabi 8 ta janr bo‘yicha eng sara maqolalari kiritilganini aytib o‘tdi.

Shuningdek, kitobdan taniqli fotojurnalist Abdug‘ani Jumaning “Fotojurnalist mahorati” nomli maqolasi bilan birga 9 nafar mahoratli fotojurnalistning turli rakurslardan olingan 70 ga yaqin fotomateriallari ham o‘rin olgani ta’kidlandi.

Mazkur kitob barcha viloyat va tumanlarda faoliyat olib borayotgan OAV tahririyatlari, jurnalistika yo‘nalishida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari, Uyushmaning hududiy bo‘limlari qoshida ochilgan mahorat maktablari hamda “Yosh jurnalistlar” to‘garaklariga bepul tarqatilishi rejalashtirilgan.

O‘z muxbirimiz

▼Gazetalar sharhi

Siz o‘qiyapsizmi?

Bugungi kunda ayrim hududlarda matbuot inqirozi yuz berdi. “Majburiy obuna” bahonasida gazeta-jurnallar “chalajon” ahvolga keldi. Ayrim viloyatlarning bosh nashri o‘lda-jo‘lda chiqayotgan bir paytda Toshkent viloyati tuman-shahar gazetalari ko‘zni quvnatar darajada chop etilyapti. Eng avvalo, bu – mutasaddi rahbarlarning matbuotga e’tiboridan, albatta.

Bugungi tuman va shahar gazetalarida odamlar hayoti, turmush tarzi, jamiyatdagi o‘zgarishlar ro‘yi-rost yoritilyapti. Ko‘tarilayotgan mavzular ko‘lami keng. Keling, ayrim nashrlarning so‘nggi sonida ko‘tarilgan maqolalar bilan tanishsak.

Deyarli har bir gazetada hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan sahifa ajratilgan. Bu o‘quvchilarning bobomiz haqidagi bilimlari yanada boyishiga xizmat qiladi.

“YANGIYO‘L” gazetasida sevimli ijodkorimiz Anvar Obidjonning “Aytmishlari va fiqralar” sarlavhasi ostida qimmatli fikrlari berilgan. “Qush inida, bola uyida ko‘rganini qiladi. Bolalar kitob mutolaasidan uzoqlashib borayotgan ekan, bu birinchi galda, oilalarda kitobxon ota-onalar tanqislashayotganidan dalolat beradi. Bunga birgina kitoblar narxi qimmatlashgani emas, kitob savdosi tizimining faoliyati susaygani, qishloqlar tugul, bir qator tuman markazlarida ham kitob do‘konlari yo‘qolib ketgani katta sababchidir”, deb yozadi muallif. Uning aqlni charhlovchi fikrlari o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

“XALQ OVOZI” gazetasida chop etilgan O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Xayollarga bo‘laman tutqun” hikoyasi o‘quvchining badiiy saviyasi yuksalishiga xizmat qiladi.

“MASH’AL” gazetasida “O‘yla, izla, top!” ruknida hozir kamayib borayotgan “Boshqotirma” berilgan.

“OQQO‘RG‘ON OVOZI” gazetasida chop etilgan O‘lmasxon Nishonboyevaning “Yurtimiz o‘zgarishlar zamonida...” nomli maqolasida iqlim o‘zgarishi, ekologiyaga oid fikrlarni o‘qish mumkin.

“YUQORI CHIRCHIQ HAYOTI” gazetasi sahifasini bezab turgan I.Husanovning “Mona Liza”ni kim va qanday o‘marib ketgan?” haqidagi maqola san’at shaydolarini befarq qoldirmaydi.

“ISTIQBOL” gazetasida chop etilgan Jamila Arslonova qalamiga mansub “Televizorning ovozini balandlating: Faxriddin Umarov kuylayapti” hamda Haydarali Muhamedovning “O‘zbekiston Respublikasining dunyoviy davlat sifatidagi asosiy belgilari” sarlavhali maqolalar ham o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

“CHIRCHIQ TONGI”ning so‘nggi sonidagi Maftuna Allaberganovaning “Qalblarga hamohang chizgilar”i tasviriy san’at ixlosmandlari uchun tuhfa. Muallif Bo‘stonliq farzandi, ras-som Rustam Mambetovning hayoti va ijodi haqida teran fikrlar bildirgan.

“OHANGARON HAYOTI”da chop etilgan O‘rishboy Xongelovning “Chiqindini xonadoningizda qayta ishlang” maqolasi ekologik qarashlarimiz o‘zgarib, tabiatga teran nigoh bilan qarashimizga turtki bo‘ladi. “Parnik effekti” haqida o‘rganamiz.

“QIBRAY SADOSI”dagi Qibrayning chiqindi poligoni qayerda?” maqolasida muallif Mahmuda Isaboyeva mutasaddilar e’tibor qaratishi kerak bo‘lgan muammoni yoritgan.

Xursand bo‘lganimiz, tuman gazetalarining har bir sahifasida mualliflarning o‘zgacha yondoshuvi sezilib turibdi.

Anglashiladiki, bosma matbuot o‘z missiyasini bajarmoqda. O‘qilyapti. Xo‘sh, siz-chi? O‘qiyapsizmi?!

Zikrilla MUHAMMAD,
“Toshkent haqiqati” muxbiri

▼Эълон

Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 27 октябрдаги 102-сонли раёсат баёни ва Тошкент вилояти ҳокимининг 2025 йил 4 январдаги 1-10-0-Q/25-сонли “Вилоят ҳудудларидаги айрим яроқсиз ҳолатдаги объектларни бузиш” тўғрисидаги қарорига кўра, Бекобод туманининг “Саврак” маҳалласи ҳудудидаги 220 ўринли 32-мактаб биноси бузилиши бўйича туман Мактабгача ва мактаб таълими бўлими биносида 2025 йил 20 февраль соат 11.00 да тендер ўтказилади.

Бузиш харажатлари смета ҳужжатларига асосан 275 миллион 755 минг сўмни ташкил этади.

Тендерда иштирок этувчилар қуйидаги ҳужжатларни тақдим этишлари шарт.

1. Қурилиш корхонасининг гувоҳномаси;
2. Ташкилотнинг СТИРи;
3. Солиқдан қарзи йўқлиги тўғрисида маълумотнома;
4. Қурилиш корхонасининг мавжуд техникалари ва ишчи кучлари тўғрисида маълумот;
5. Қурилиш корхонасининг тижорат таклифи;
6. Қурилиш корхонаси раҳбарининг буйруғи ва паспорт нусхаси.

Изоҳ: тендерда ғолиб деб топилган қурилиш корхонасига қурилишдан чиққан материалларни баҳолатиш юклатилади ва тўловни амалга оширади.

Қўшимча маълумот олиш учун қуйидаги телефон рақамига мурожаат қилинг: (33) 897-63-82.

Бекобод тумани Мактабгача ва мактаб таълими бўлими маъмурияти

▼ 14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun

▼ Hayrat

Prezidentimizning “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori shunday so‘zlar bilan boshlanadi: “Jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega”.

Mardi-maydonim, Bobur...

Darhaqiqat, hazrati Bobur ijodi bamisoli ummon. Bu ummondan hayotning hamma jabhasiga doir marvaridlarni topish mumkin. U yaratgan asarlar serqirraligi, tarixiy, adabiy-badiiy ahamiyati bilan o‘ziga xosdir. Umrining ko‘p qismini jang maydonlarida o‘tkazgan bo‘lishiga qaramay, Mirzoning asarlari asrlar mobaynida butun dunyo kitobxonlarini hayratga solib keladi.

Bobur asosan turkiy va fors tillarida ijod qilgan. Ammo she’ru g‘azallari dunyoning 100 dan ziyod tillariga tarjima qilingan. Uning ijodidagi ruhiyatning o‘ziga xos manzaralari, tabiatning go‘zal tasviri, murakkab tuyg‘ularning sodda va teran bayoni boshqa hech bir shoirda ko‘zga tashlanmaydi.

U nafaqat jang maydonida, balki qalam tebratishda ham mardi maydon edi. Shundanmi, u o‘z ijodidagi kamchiliklarni yashirib o‘tirmaydi. O‘zini buyuk qilib ko‘rsatishga urinmaydi. Hayoti davomida yo‘l qo‘ygan xatolarini ro‘y-rost tan ola biladi.

Jumladan, “Boburnoma” asarida u erishgan g‘alabalari bilan birga, alamli mag‘lubiyatlari borasida ham batafsil to‘xtalgan. Shuningdek, mag‘lubiyatlariga sabab bo‘lgan kamchiliklarini birma-bir sanab o‘tgan. Bu qadar noyob samimiyat esa, hazrat bobomizning haqiqatda buyuk inson bo‘lganini anglatadi.

Tole' yo‘qki jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishnikim, ayladim xatolig‘ bo‘ldi,
O‘z yerin qo‘yib Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qorolig‘ bo‘ldi.

Mirzo Boburdan, ayniqsa, vatanparvarlikni, ona yurtni qanday sevishni o‘rgansak arziydi. U katta saltanatga asos solgan shahanshoh, ko‘plab insonlarning ko‘nglini zabt etgan betakror shoir edi. Shunga qaramay, umrining oxirigacha Vatan sog‘inchida yashadi. Bu sog‘inch iztirobi asarlarida, dardli satrlarida aks etdi. Ya’ni, o‘zining shohligi va shoirligidan ham Vatan tuprog‘ini azizroq bildi.

Darhaqiqat, Boburning vatanparvarligi barchamiz, ayniqsa, yoshlar uchun ibrat maktabidir. Shuning uchun uning ijodini, shaxsini o‘rganish, yosh avlodda targ‘ib qilish maqsadga muvofiqdir.

Mahmuda ISABOYEVA

Журналист ён дафтаридан

Тожмаҳални кўрганлар ва кўрмаганлар...

Тожмаҳални илк бор кўриб, ҳайратда қолган инглиз ёзувчиси шундай деган экан: “Дунё аҳлини бундан буён бемалол иккига бўлиш мумкин: Тожмаҳални кўрганлар ва кўрмаганларга ...”

...1987 йил 11 ноябрь. Москванинг Шереметьево аэропортидан самога кўтарилган қудратли “ИЛ-62” самолёти Ҳиндистон томон йўл олди.

Тошкентдан чиққанимизда беш даража, Москвада эса ўн саккиз даража совуқ эди. Калькутта аэропортига қўнганимизда ҳарорат ўттиз беш даража иссиқ экан.

Бизни сурнай садолари билан кутиб олишди. Ҳар биримизнинг пешонамизга синдур қўйиб, бўйнимизга гулчамбарлар осишди. Сўнг шинам меҳмонхонага жойлаштиришди. Оқшом бизнинг шарафимизга катта зиёфат берилди. Бундай эътибордан беҳад хурсанд бўлдик. Шу билан бирга афсонавий Тожмаҳални тезроқ кўриш ва унинг тарихини билишга қизиқар эдик.

* * *

Тарихдан маълумки, Малика Аржумандбону (Мумтоз маҳал) бегим 1627 йилда эри Ҳуррам тахт эгаси бўлгач, унинг энг яқин маслаҳатчисига айланди. У араб ва форс тилларини мукаммал билар, шеърлар ёзар, Қуръони каримни ёд олган, бироқ шундай бўлса-да, ҳукумат ишларига кўп ҳам аралашавермас эди.

Отасига қарши исён кўтариб тахтга эришган Ҳуррам эса Шоҳжаҳон (Жаҳон шоҳи) номини олди. Малика Аржумандбону бегимнинг зукколиги, донолиги, шоиралиги туфайли ҳамда Шоҳжаҳоннинг адолат билан ҳукм юритиши боис Ҳиндистон гуллаб-яшнади. Шоҳжаҳон жуда кўп қурилишларни амалга оширса-да, бу ҳолат фуқароларнинг турмушига салбий таъсир қилмас, балки улар фаровон яшаётганлиги учун Шоҳжаҳон ва унинг доно рафиқасидан ғоят миннатдор эдилар.

Шоҳжаҳон севиклиси Аржумандбону бегимни еру кўкка ишонмасди. 1631 йилда Бурхонпурдаги исённи бостирган Шоҳжаҳон кўп хурсандчилик билан яна пойтахтга йўл олди. Бироқ ўша йилнинг машъум 17 июнь куни йўлда маликани тўлғоқ тутади. Ўн тўртинчи фарзандини дунёга келтириш чоғида унинг аҳволи оғирлашиб шоҳни ёнига чорлайди. Шоҳжаҳон хотини ёнига келиб сўрайди:

– Сизга не бўлди, бегим?

– Аҳволим ўзимга аён, шоҳим, Роббим ёнига чорлаяпти шекилли...

– Ундай деманг асло, ҳали кўп яшайсиз..

Шоҳжаҳоннинг кўзлари жиққа ёш эди. Малика охирги нафасларини олар экан, яна эрига юзланди:

– Шоҳим, сиздан икки илтимосим бор.

– Айтинг, дарҳол бажарурмен.

– Аввало, болаларимни чорланг ҳузуримга...

Кўзлари ёшга тўлган фарзандлари бирин-кетин ўлим тўшагида ётган оналари ёнида ҳозир бўлишади.

– Шоҳим, болаларимни Сизга, Сизни эса Худога топширдим. Мен Сиздан минг бора розиман, доимо Сизни ҳаммадан қизғаниб яшадим. Ягона илтимосим, энди уйланманг ва севгимиз ҳаққи-ҳурмати тенгсиз бир обида қурингиз...

...Ўша куни Шоҳжаҳоннинг дод солиб, ўкраб йиғлаганига тоғу тошлар ҳам чидамади. Жала қуйиб, осмон фарёд солди, ўрмонда филлар ва шерлар ўкирди. Ҳинд уммонидаги ваҳимали тўлқинлар пишқириб қирғоққа сапчиди...

Соҳибжамол Аржумандбону бегим ўттиз саккиз ёшида бу ёруғ дунёни тарк этган ўша маъшум тундан кейин Шоҳжаҳон саккиз кунга қадар ҳеч кимга кўриниш бермади, емади, ичмади. У саройда пайдо бўлганда ҳамма даҳшатдан қотиб қолди. Ҳали қирқ ёшга ҳам кирмаган Шоҳжаҳоннинг маҳзун кўзларида чуқур ғам, сочлари оқариб кетган, бели букилиб, кўриниши чолларга ўхшаб қолган эди.

Шоҳжаҳон маликадан сўнг уйланмади. Унинг кўзларига дунё тор келди, ҳатто ўзини ўлдирмоқчи бўлганида маликанинг васияти ёдга тушди.

Император Мумтоз маҳалнинг васиятини бажо келтириш учун барча меъморларни йиғди, бироқ уларнинг бирорта тархи ҳам ҳукмдорга маъқул келмади. Бир куни Шоҳжаҳон туш кўради, тушида севиклиси унга обида тархини баён қилади... Кейинчалик Шоҳжаҳон буни тан олиб, Тожмаҳалнинг тархи арши аълодан туширилгандир, деб айтади.

Хуллас, 1632 йилда Тожмаҳалнинг қурилиши бошланади. Уни 22 йил мобайнида кунига йигирма минг киши тинимсиз меҳнат қилиб бунёд этадилар. Ҳар куни мингдан зиёд филларни ишлатишади. Жамна дарёси орқали юзлаб қайиқларда Эрон, Бангладеш, Тибет ва бошқа жойлардан қимматбаҳо тошлар, мармарлар, феруза, ақиқлар келтирилади.

Иншоот қуриб битказилганидан сўнг маликанинг хокини келтириб дафн этадилар ва унинг бошига кийдирилган тож ҳурмати учун бу обидани Тожмаҳал деб атайдилар.

1658 йилда Шоҳжаҳонни нобакор ўғли Аврангзеб уй қамоғига олади. Айтишларича, Шоҳжаҳон Жамнанинг нариги қирғоғида қора мармардан худди Тожмаҳалга ўхшаган обида қурмоқчи бўлган. У Тожмаҳал билан кўприк орқали бирлаштирилиши керак эди, бироқ золим Аврангзебнинг манфур қилмиши туфайли бу эзгу орзу амалга ошмай қолди.

1666 йили собиқ император дорилбақога риҳлат қилганида уни ярим тунда Жамна дарёси орқали қайиқда келтириб маликанинг ёнига дафн этадилар...

* * *

Каминага беш марта Тожмаҳални зиёрат қилиш насиб этган. Аммо фақат бир марта, 1990 йилнинг 5 июнь куни мулозимларга кўп илтимослар қилиб, Тожмаҳалнинг ертўласига тушиб асл қабрларни кўрганман. Ярим қоронғу ертўлада сирли бир сокинлик, ажиб бир сукунат ҳукмрон. Ифори исларни сезасиз, қабрлар ёнида шам милтиллаб ёниб турибди. Бу жойда икки севишган мангуга бош қўйган. Уларнинг қабрларини кўриб, муҳаббат ва мусибат қасрининг ертўласида буюк ошиқлар ҳаққига тиловат қилдим.

Озод ХУШНАЗАРЗОДА

▼ Шудир масала!

Дам олиш куни гул савдоси билан шуғулланадиган дўстимнинг дўконига бордим. Икки соатча суҳбатлашиб ўтирган бўлсак, шу орада иккита гулдаста сотилди. Харидор бўлганлар ҳам, ҳойнаҳой, биринчи марта учрашувга чиқаётган йигитлар.

Дунёқарашнинг дунёга қарашдан фарқи

– Қўлинг-қўлингга тегмай савдо қилардинг, гул бозори ҳам касод бўла бошлабди-ку, – дедим ярим ҳазил қилиб.

– Савдо энди юришади-да, ўртоқ! – бепарво жавоб қилди ошнам. – Ҳадемай, 14 февраль – севишганлар куни, унинг ортидан ҳаш-паш дегунча саккизинчи март бошланиб кетади... Хуллас, баҳи сезонда!

Эчкига жон қайғуси, қассобга ёғ!

Жон қайғусини чекиб, уйга келдиму шу гапларни ёзишга тутиндим.

Бизга нималар бўляпти ўзи? Авваламбор, кўнгил қўйган инсонимизга изҳори дил қилиш учун айнан қайсидир кунни кутиш шартми? 14 январь, 14 февраль, 8 март... ва ҳоказо? Ўзимизга “Севишганлар куни” деб “ағдарма” қилганимиз – “День Валентин”га бало борми?

Умуман, бу “байрам”нинг илдизи қаерга қараб кетганини ҳеч ўйлаб, мулоҳаза қилиб кўрганмизми?

Манбалар шоҳидлик беришича, бунинг “тарихи” қадим Римга бориб тақалади. Қадимги Рим ҳукмдори Клавдий жанг бўлаётган вақтларда аскарларга никоҳланиш, оила қуришни тақиқлайди. Аммо унинг руҳонийси – (халққа шаҳватпарастлиги билан машҳур) “авлиё” Валентин аскарларга турли қинғир йўллар билан “оила қуриш”га имкон яратиб беради. Бундан хабар топган Клавдий Валентинни зиндонга ташлайди. Аммо “устаси” барибир уста-да! Зиндонда ҳам қабиҳ ишларнинг уддасини қилган “авлиё” ўлимга ҳукм қилинади.

Ўз наздида, “севишганларни висолга етказган” (ҳозирги тилда “қўшмачи” десак тўғри бўлар, балки) Валентин 14 февраль куни қатл қилинади. Бор гап шу!

Бизнинг жаҳолат – жаҳли мураккаб, деган жадид боболаримиз ҳақ!

Бу воқеага неча аср ўтган, аммо ёшлар орасида кенг тарқалган мазкур сана ҳамон ёддан чиқмайди. Лекин шу ёшлардан “14 февралда яна нима воқеа содир бўлган?” деб сўранг-чи?..

Барака топгур тенгдошлар, уқасингиллар, бу сана буюк Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳазратлари таваллуд топган кун, ахир! Ҳар қанча байрам қилсак, шу сана лойиқдир! Бу кундаги бошқа “тантана”ни унутмоғимиз лозим ва лобуд бўлади!

Тўғри, бу сана темурийзода бобомиз таваллуди сифатида ҳам мамлакатимиз бўйлаб барча таълим масканларида турли маънавият тадбирлари кўринишида, ғазалхонликларга уланиб, тантанали ўтказилади, бироқ... Дарсу машғулотлардан сўнг яна ўз билганини хуфёна қилиб, Райҳоннингми, Ойхоннингми концертига шошадиган ёшлар озми дейсиз?!

Бу ахир ўз тарихимизга, жасур саркарда, дилбар шахс ва шоир сифатида олам аро донг таратган жаҳонгашта бобокалонимизга ҳурматсизлик бўлмайдими?

У зоти шариф қитъаларидан бирида шундай дейдилар:

Қолмади ҳурмат аҳли оламда,
Оламу олам аҳдидин ув илик..!

Англашиладики, бундан беш-олти аср аввал ҳам ҳолимиз шу бўлган. Демакки, ҳар даврда ҳам инсон ўзлигини йўқотмаслиги учун яхши тарбияга, яхши устозга, яхши дўстга муҳтож экан-да. Боболаримиз ҳақида гапиришни қойил қиляпмизу лекин муносиб ворисликка келганда ер чизиб қолмаяпмизми?

Бобур ҳазратлари 12 ёшида юрт бошқарган бўлса, ҳозирги баъзи ёшлар 21 ёшида ҳам бошини қай кунжакка уришни билмай, бемақсад юрганига нима дейсиз! Бу ёшда ҳатто қайси олийгоҳда таълим олишини аниқ билмайдиганлар ҳам оз эмас. Келажакда тутадиган касбини ўйлаб кўрмаганлар қанча экан?

Мамлакатимиздан хорижнинг нуфузли даргоҳларига бориб таълим олаётган ҳамюртларим ҳақида эшитсам ғурурланиб кетаман, худдики ўзим бориб таълим олаётгандек қувонаман. Аммо онлайн қимору турли ножўя ишларга аралашиб қолган ёшлар ҳақидаги хабарлар хуноб қилади.

“Севишганлар куни” масаласи, бир неча йилдирки, қайта-қайта муҳокама қилинади. Аммо “қурғур”нинг ҳеч чекингиси йўқ. Бунинг илдизига болта уриш учун, аввало, онгимизда “илдиз отган” нотўғри тушунчаларнинг пайини қирқишимиз, дунёга қараш билан дунёқарашнинг фарқини яхши тушуниб олишимиз шарт!

Гул харид қиламан деб пул йиғиб юрганларга эслатиб ўтмоқчиман: 14 февраль – Заҳириддин Муҳаммад Бобур таваллуд топган кун, сиз бу пулга гул эмас, китоб харид қилинг. Масалан, “Бобурнома” ёки “Бобурийнома”ни!

Моҳирбек ҚЎЧҚОРОВ,
ёш ижодкор

TOSHKENT HAQIQATI
ТАШКЕНТСКАЯ ПРАВДА

Muassis:
TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI

“Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalari tahrir hay’ati:
Zoyir MIRZAYEV (tahrir hay’ati raisi)
Abdusamad NOSIROV
Ummat MIRZAQULOV
Hotamjon SAYDAHMEDOV
G‘afurjon MUHAMEDOV
Sayyora FAYZIYEVA
Tohir ARIPOV
Mahmud TOIR
Uskenboy ATEMOV
Abdulla XURSANOV
Kumush EGAMBERDIYEVA
Behzod QOBULOV
Olimjon BEGALIYEV
Zarifa ERALIYEVA
Sergey MUTIN

Bosh muharrir:
G‘ayrat SHERALIYEV

Qabulxona: (55) 520-64-95
Bosh muharrir o'rinbosari: (55) 520-04-10
Mas’ul kotib: (55) 520-05-10
Bo‘lim muharrirlari: (55) 520-06-20, (55) 520-04-20
E'lonlar va hisob-kitob bo‘limi: (55) 520-21-20
e-mail: toshkenthaqiqati@umail.uz

Mas’ul kotib: Alloma AZIZOVA
Navbatchi: Suhrobjon SADIROV
Ekspeditor: Behruz NURBOBOYEV

Bosishga topshirish vaqti – 21:00.
Bosishga topshirildi – 19:30.
Nashr ko‘rsatkichi – 205.
Buyurtma G-235.
3 931 nusxada chop etildi.
Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosildi. Qog‘oz bichimi A–2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida 2011-yil 12-yanvarda 03-001 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Manzil: 111500, Nurafshon shahri, Toshkent yo‘li ko‘chasi, 90.
Toshkent shahridagi ofisimiz: Bektemir tumani, Ittifoq ko‘chasi, 2.
ISSN 2010-9318.

Gazeta «Toshkent haqiqati» tahririyati kompyuter markazida terildi va Tohir Mahmudxo‘jayev tomonidan sahifalandi.

Haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida bosildi. Korxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6